



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	



BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI)

Abdulkarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi

Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li

TDIU–URDIU magistranti

Ilmiy rahbar:

Beknazarov Zafarjon Ergachevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va ekologik hisobotlar (ESG – Environmental, Social, Governance) tizimining joriy holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari o'rganiladi. Tadqiqotda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) hamda Global Reporting Initiative (GRI) asosida milliy amaliyot tahlil qilinadi. 2021–2025-yillar davridagi davlat kompaniyalari va xususiy sektor faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar asosida ESG hisobdorligining shakllanish jarayoni baholanadi. Maqolada ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarining buxgalteriya hisobiga integratsiyalashuvi, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi hamda biznes muhitidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ESG hisobotlarining muhim ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ESG hisoboti, buxgalteriya hisobi, ekologik hisobot, barqaror rivojlanish, nomoliyaviy hisobot, korporativ boshqaruv, xalqaro standartlar.

Abstract: This article examines the current state, development trends, and prospects of accounting and environmental reporting (ESG – Environmental, Social, Governance) in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes national practices based on International Financial Reporting Standards (IFRS) and Global Reporting Initiative (GRI) standards. Using statistical data from state-owned enterprises and the private sector for 2021–2025, the formation of ESG reporting is assessed. The paper explores the integration of environmental, social, and governance principles into accounting systems, improvements in the regulatory framework, and changes in the business environment. The findings highlight the significant role of ESG reporting in achieving sustainable development goals in Uzbekistan.

Key words: ESG reporting, accounting, environmental reporting, sustainable development, non-financial reporting, corporate governance, international standards.

Аннотация: В данной статье исследуются текущее состояние, тенденции развития и перспективы системы бухгалтерского учета и экологической отчетности (ESG – Environmental, Social, Governance) в Республике Узбекистан. В исследовании анализируется национальная практика на основе международных стандартов финансовой отчетности (IFRS) и стандартов Global Reporting Initiative (GRI). На основе статистических данных деятельности государственных компаний и частного сектора за 2021–2025 годы оценивается процесс формирования ESG-отчетности. В статье проанализированы интеграция экологических, социальных и управленческих принципов в бухгалтерский учет, совершенствование нормативно-правовой базы и изменения в бизнес-среде. Результаты исследования подтверждают важную роль ESG-отчетности в достижении целей устойчивого развития в Узбекистане.

Ключевые слова: ESG-отчетность, бухгалтерский учет, экологическая отчетность, устойчивое развитие, нефинансовая отчетность, корпоративное управление, международные стандарты.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) parametrlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qiluvchi kompaniyalar uzoq muddatli istiqbolda yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'ladilar [1]. O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobotni joriy etishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan.

Buxgalteriya hisobi tizimida ESG hisobotlarining integratsiyalashuvi kompaniyalarning shaffofligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va xalqaro moliya bozorlariga kirishni osonlashtiradi. Hozirgi kunda O'zbekiston kompaniyalari uchun ESG standartlariga o'tish nafaqat xalqaro talablarni qondirish, balki ichki boshqaruv samaradorligini oshirish vositasiga aylanmoqda. 2021-yildan buyon mamlakatda bir qator yirik davlat korxonalari ESG tamoyillarini o'z faoliyatiga joriy etishni boshladi va birinchi nomoliyaviy hisobotlarini nashr etdi. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda buxgalteriya va ekologik hisobot tizimining hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik va ijtimoiy hisobotlar to'g'risidagi nazariy asoslar xalqaro darajada ko'plab tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Global Reporting Initiative (GRI) standartlari barqaror rivojlanish hisobotini tayyorlashda eng keng qo'llaniladigan asos hisoblanadi [2]. GRI standartlari kompaniyalarga o'zlarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirini tizimli baholash va oshkor qilish imkonini beradi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari fondi (IFRS Foundation) tarkibida tashkil etilgan Barqaror rivojlanish standartlari kengashi (ISSB) 2023-yilda IFRS S1 va IFRS S2 standartlarini tasdiqladi [3]. IFRS S1 standartida barqaror rivojlanish bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilishning umumiy talablari, IFRS S2 standartida esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlarni oshkor qilish tartibi belgilab berilgan.

Yevropa Ittifoqi 2024-yilda Korporativ barqarorlik hisoboti direktivasi (CSRD) ni joriy etib, yirik kompaniyalar uchun ESG hisobotini majburiy qildi [4]. Ushbu direktiva Yevropa barqarorlik hisobot standartlari (ESRS) asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u buxgalteriya hisobini barqaror rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bog'lashni ta'minlaydi.

O'zbekiston kontekstida ESG hisobotlarining rivojlanishi haqida yaqinda nashr etilgan tadqiqotlar mamlakatdagi institutsional cheklovlar va rivojlanish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, O'zbekistonda ESG hisobdorligining asosiy drayverlarini quyidagilar tashkil etadi: davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xalqaro investorlarning talablari va xalqaro moliya institutlarining kredit shartlari [5].

Buxgalteriya hisobida ekologik xarajatlar va majburiyatlarni tan olish masalalari maxsus e'tibor talab qiladi [6]. BHXS (IAS) 37 standarti bo'yicha ekologik majburiyatlar, jumladan, tuproqni tozalash, chiqindilarni utilitatsiya qilish va ekologik zararni qoplash xarajatlari moliyaviy hisobotda to'liq aks ettirilishi zarur.

Korporativ boshqaruv va shaffoflik masalalari ham ESG hisobotlarining muhim komponenti hisoblanadi [7]. Mustaqil direktorlar ulushini oshirish, auditlar o'tkazish va risk-menejment tizimlarini rivojlantirish kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda 2023–2025-yillar davomida davlat kompaniyalarida korporativ boshqaruv islohotlari amalga oshirildi va kuzatuv kengashlarida mustaqil direktorlar ulushi 25 % ga yetdi.

ESG reytinglari va baholash metodologiyalari investitsion qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi [8]. S&P Global, Moody's ESG Solutions, Sustainable Fitch kabi xalqaro reyting agentliklari kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlarini baholash orqali ularning barqarorlik darajasini aniqlaydilar.

TADQIQOTLAR METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy metodlar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida buxgalteriya hisobi va ekologik hisobotlar tizimining integratsiyasi jarayonini baholash hamda optimallashtirish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Hujjatli tahlil metodi: O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar (IFRS, GRI, ESRS) tahlil qilindi.

Statistik tahlil: 2021–2025-yillar davridagi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (stat.uz), Soliq qo'mitasining (soliq.uz) hamda qonunchilik ma'lumotlar bazasining (lex.uz) rasmiy ma'lumotlari asosida davlat kompaniyalari va xususiy sektorning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilindi.



Qiyosiy tahlil metodi: O'zbekiston amaliyoti xalqaro tajriba va yetakchi mamlakatlarning ESG hisobot tizimi bilan solishtirildi.

Kontent-tahlil: Yirik davlat kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari, ESG hisobotlari va strategik hujjatlari mazmunan tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida 2021–2025-yillar davridagi O'zbekiston kompaniyalarining buxgalteriya hisobi va ESG hisobotlari tizimi tanlab olindi. Tadqiqot predmetini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'rsatkichlarining buxgalteriya hisobiga integratsiyalashuv mexanizmlari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda davlat ishtirokidagi kompaniyalar soni va ularning moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Quyidagi jadvalda davlat kompaniyalarining asosiy moliyaviy natijadorligi aks ettirilgan:

1-jadval. O'zbekiston davlat ishtirokidagi kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlari (2021-2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Davlat kompaniyalari soni (birlik)	2144	2340	2287	2198	2150
Foyda ko'rgan kompaniyalar soni	1098	1206	1284	1356	1420
Zarar ko'rgan kompaniyalar soni	518	439	392	341	310
Jami sof foyda (trln so'm)	32,45	41,05	48,73	56,82	64,50
Jami zarar (trln so'm)	9,15	13,17	11,84	10,23	9,10
ESG reytingi olgan kompaniyalar	-	3	8	14	22

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida foyda ko'rgan kompaniyalar ulushi oshib, zarar ko'rgan korxonalar soni qisqarmoqda. 2022-yilda davlat kompaniyalari sonining o'sishi asosan xususiylashtirish uchun davlat tasarrufiga o'tkazilgan 444 ta korxona hisobiga sodir bo'ldi.

Ayniqsa, e'tiborga sazovor jihati — ESG reytingi olgan kompaniyalar sonining keskin o'sishidir. 2022-yilda faqat 3 ta kompaniya ESG baholashdan o'tgan bo'lsa, 2025-yil prognoziga ko'ra bu ko'rsatkich 22 taga yetishi kutilmoqda.

Quyidagi grafik 2021–2025-yillar davomida O'zbekiston yirik davlat kompaniyalari tomonidan ESG standartlarini joriy etish va xalqaro reyting agentliklaridan baho olish jarayonini aks ettiradi:



1-rasm. O'zbekiston davlat ishtirokidagi kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlari

Grafik shuni ko'rsatadiki, 2022-yildan boshlab O'zbekiston kompaniyalari o'rtasida ESG standartlariga e'tibor keskin oshdi. Bu Prezident tomonidan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va 31 ta yirik davlat korxonasida ESG tamoyillarini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berilgani bilan bog'liq.



O'zbekistonda eng yirik soliq to'lovchilar ro'yxati davlat byudjetida muhim o'rin tutadi. Quyidagi jadvalda 2021–2025-yillar davomida eng yirik soliq to'lovchilarning byudjet tushumlaridagi ulushi va ESG faoliyati aks ettirilgan:

2-jadval. O'zbekistonning yirik soliq to'lovchilari va ESG faoliyati (2021-2025)

Kompaniya nomi	2021 ulushi (%)	2022 ulushi (%)	2023 ulushi (%)	2024 ulushi (%)	2025 (prognoz, %)	ESG reytingi (2024-2025)
Navoiy KMK	20,1	17,82	16,3	15,8	15,2	S&P: BB, ESG: 55 ball
Olmaliq KMK	6,4	9,4	8,6	8,9	9,1	S&P: BB-, ESG: 52 ball
O'zbekiston Milliy banki	4,2	5,8	6,4	7,1	7,8	S&P: BB, ESG: 48 ball
O'zbekneftgaz	8,7	2,9	3,4	3,8	4,1	Jarayonda
O'ztransgaz	5,1	3,2	2,8	2,5	2,3	-
Uzbekistan Airways	1,8	2,1	2,3	2,6	2,8	Jarayonda
O'zkimyosanoat	2,3	2,4	2,7	3,2	3,5	ESG: 29 ball
O'zgidroenergo	1,6	1,8	2,1	2,4	2,7	ESG: 58 ball
O'zbektelekom	2,8	3,1	3,4	3,6	3,9	ESG: 73 ball
Milliy elektr tarmoqlari	1,4	2,2	2,5	2,8	3,1	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2021–2025-yillar davomida yirik kompaniyalarning byudjet tushumlaridagi ulushi nisbatan barqaror bo'lib qolgan. Navoiy KMK va Olmaliq KMK an'anaviy ravishda eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib, ularning umumiy ulushi 24–25 % atrofida o'zgarmoqda.

E'tiborga sazovor jihat — ESG reytingi yuqori bo'lgan kompaniyalar (masalan, O'zbektelekom – 73 ball, O'zgidroenergo – 58 ball, Navoiy KMK – 55 ball) uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni namoyon etmoqda. Bu barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [9].

O'zbekistonda 2023-2025-yillarda qator muhim qonunchilik o'zgarishlari amalga oshirildi:

- 2023-yil sentabr: "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ekologik va ijtimoiy masalalarga alohida e'tibor qaratildi.
- 2024-yil fevral: Davlat dasturida biznes muhitini yaxshilash va xalqaro standartlarga o'tish belgilandi.
- 2025-yil yanvar: "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi va barcha davlat kompaniyalari uchun xalqaro standartlar bo'yicha hisob yuritish majburiy etib belgilandi.

Buxgalteriya hisobi tizimiga ESG parametrlarini integratsiya qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- ekologik xarajatlar hisobi: atmosfera emissiyalari, suv va energiya sarfi, chiqindilarni utilizatsiya qilish xarajatlarini alohida hisobga olish;
- ijtimoiy investitsiyalar: xodimlarni rivojlantirish, xavfsizlik choralari, ijtimoiy dasturlar uchun ajratilgan mablag'larni kuzatish;
- korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari: mustaqil direktorlar ulushi, auditorlik tekshiruvlari, risk-menejment tizimlarining samaradorligi haqida ma'lumotlar.

2024–2025-yillarda UzAssets investitsiya kompaniyasi tomonidan boshqariladigan 31 ta yirik davlat korxonasida ESG tamoyillarini to'liq joriy etish dasturi ishlab chiqildi. Bu kompaniyalar byudjet tushumlarining qariyb 40 % ini ta'minlaydi va ularning ESG standartlariga o'tishi milliy iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida 2021–2025-yillar davomida buxgalteriya va ekologik hisobot tizimi sezilarli rivojlanishga erishdi. ESG tamoyillarini joriy etish nafaqat xalqaro investorlar talablarini qondirish, balki kompaniyalarning ichki samaradorligini oshirish vositasiga aylandi.

Tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

- Davlat kompaniyalari orasida ESG reytingi olganlar soni 2022-yildan 2025-yilgacha 7 barobarga oshdi (3 tadan 22 tagacha).
- ESG standartlariga rioya qiluvchi kompaniyalar moliyaviy barqarorlik va rentabellik jihatidan yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqda.
- Normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi ESG hisobotlarini joriy etish jarayonini tezlashtirmoqda.



4. Buxgalteriya hisobi tizimiga ekologik va ijtimoiy parametrlarni integratsiya qilish kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqot quyidagi tavsiyalarni beradi:

- barcha yirik davlat va xususiy kompaniyalar uchun ESG hisobotini bosqichma-bosqich majburiy qilish;
- buxgalterlarning ESG standartlari bo'yicha malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish;
- milliy ESG standartlarini xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish;
- kichik va o'rta biznes uchun soddalashtirilgan ESG hisobot formatlarini ishlab chiqish.

O'zbekiston "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida barqaror rivojlanishga erishish yo'lida izchil harakat qilmoqda. Buxgalteriya va ekologik hisobot tizimining keyingi rivojlanishi mamlakatning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi va investitsion jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalardan adabiyotlar ro'yxati

1. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – Stakeholderlar nazariyasi va korporativ mas'uliyat asoslari.
2. Global Reporting Initiative. GRI Standards. – Amsterdam: GRI, 2021. – Barqaror rivojlanish hisobotining xalqaro standartlari.
3. IFRS Foundation. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information; IFRS S2 Climate-related Disclosures. – London: ISSB, 2023.
4. European Commission. Corporate Sustainability Reporting Directive (CSRD). – Official Journal of the European Union, 2023. – Yevropa Ittifoqining korporativ barqarorlik hisoboti direktivasi.
5. Karimov A. O'zbekiston korporativ sektorida ESG hisobotlarining holati va rivojlanish istiqbollari // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2025. – Т. 5, № 12. – С. 45–58.
6. International Accounting Standards Board. IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. – London: IFRS Foundation, 2018.
7. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. – Paris: OECD Publishing, 2023. – Korporativ boshqaruvning G20/OECD tamoyillari.
8. KPMG. Survey of Sustainability Reporting 2024. – KPMG International, 2024. – Barqarorlik hisoboti bo'yicha so'rov natijalari.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmon. <https://lex.uz/docs/-6600413>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>